



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026

O‘ZBEK YOSHLARI NUTQIDAGI SOTSIOLEKTLAR SOCIOLECTS IN THE SPEECH OF UZBEK YOUTH

Meliboyeva Dilshodabonu Shukirillo qizi

Andijon viloyati Baliqchi tumani “Imomov Akademiyasi” nodavlat ta’lim muassasasi o‘qituvchisi

E-mail: dilshodameliboeva18@gmail.com

ORCID: 0009-0007-6474-7524

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./EJDW2169](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./EJDW2169)

Annotatsiya. *Mazkur maqola o‘zbek yoshlari nutqidagi keng iste’molda bo‘lgan sotsiolektlar, ularning nutq jarayonidagi ahamiyati va ma’no nozikliklarini o‘rganish, shuningdek, sotsiolektlarni guruhlashtirib tahlil qilishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Sotsiolingvistika, sotsiolekt, jargon, argo, sleng*

Annotation. *This article is aimed at studying sociolects that are widely used in the speech of Uzbek youth, their significance and subtleties of meaning in the speech process, as well as grouping and analyzing sociolects.*

Key words: *Sociolinguistics, sociolect, jargon, argot, slang*

Til va jamiyat. Bu ikki tushuncha doimo bir-biriga uzviy bog‘liq ravishda yashaydi. Tilsiz jamiyatni, jamiyatni esa tilsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki jamiyatning rivoji tilning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Tilning jamiyat bilan aloqadorligi tilshunoslikning sotsiolingvistika qismida o‘rganiladi. Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiati, jamiyat bilan aloqasi, jamiyatning tilga, tilning esa jamiyatga ta’siri, jamiyat orqali tilga kirib kelayotgan yangiliklarni o‘rganadigan sohasi hisoblanadi. Sotsiolingvistika sotsiologiya va tilshunoslik oraliq‘ida rivojlanayotgan fandır.

“Sotsiolingvistika” termini fanga birinchi marta 1952-yilda amerikalik sotsiolog G.Karri tomonidan kiritilgan. A.Keypelning fikricha, “sotsiolingvistika” terminining o‘zi o‘zini aniqlab keladi. O‘z nomidan ham ko‘rinib turganidek, sotsiolingvistika sotsiologiya va lingvistika kesishgan nuqtada yuzaga kelgan fan [Usmonova, 2014: 4]. Sotsiologik lingvistika o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgani yo‘q. U qadim davrdan boshlab tilga, til va jamiyat masalalariga bo‘lgan turlicha qarashlarning, yondashishlarning ijobiy natijasi, obyektiv mahsuli sifatida qaror topdi.

Ayrim sotsiolingvistlarning fikricha, sotsiolingvistikaning ildizlarini Amerika tilshunosligidan emas, balki Yevropa, xususan, rus tilshunosligidan izlash kerak [Беликов, 2001: 6].

Tilshunoslikdagi sotsiologik ta'limotning asoschilari Ferdinand de Sossyur va Antuan Meyelardir. Mana shu olimlar qayd etilgan yangi yo'nalishga “sotsiologik lingvistika” nomini berdilar [Darvishov, 2012: 49].

Bir so'z bilan aytganda, sotsiolingvistika tilning ijtimoiy kontekstdagi holatini o'rganadi. Aynan mana shu ijtimoiy kontekstda til foydalanuvchilarining ijtimoiy tabiati namoyon bo'ladi. Masalan, “sof” lingvistikada tomi ketmoq iborasi ot va fe'ldan tarkib topgan frazeologik birlik sifatida talqin qilinsa, sotsiolingvistikani mazkur ibora qaysi tabaqa vakilining so'zlashuv nutqida qo'llanilgani qiziqtiradi [Usmanova, 2014: 3].

Har bir tilshunoslik yo'nalishi o'zining termin va tushunchalariga ega bo'lgani holda sotsiolingvistikada ham unga aloqador bir qancha tushuncha va atamalar mavjud. Bilingvizm, interferensiya, diglossiya, argo, jargon, sleng, sotsiolekt, variativlik, til me'yori, nutqiy muomala, nutqiy akt shular jumlasidandir. Argo fransuzcha argot so'zidan olingan bo'lib, ma'lum ijtimoiy guruhlarning faqat o'zlarigagina ayon, boshqalardan sir tutiladigan til shaklidir. Argolar qiziqishlari, mashg'ulotlari, yoshlari bir xil bo'lgan ma'lum tor doiradagi guruh vakillari qo'llaydigan so'zlardir [Abdurahmonova, 2022: 104]. Argolar til egalari tomonidan suhbatning yashirin, boshqalarga tushunarsiz bo'lishini ta'minlash uchun foydalaniladi. Aynan mana shu sirlilik, yashirinlik jihati bilan jargonlardan farqlanadi. Shu sababli ham argolar jamiyatdagi jinoyatchilar, o'g'rilar, josuslar singari yashirin tabaqa vakillari nutqida uchraydi. Masalan, o'g'rilar argosida “*shmon qilmoq*”, “*gopstop qilmoq*” iboralari o'g'irlamoq ma'nosida, giyohvandlar argosida “*dori*”, “*qora dori*” giyohvand modda ma'nosida ishlatiladi [Usmonova, 2014: 17]. Jargon – biror ijtimoiy guruh vakillarining o'z nutqi bilan ko'pchilikdan ajralib turish maqsadida o'zicha mazmun berib ishlatadigan so'z va iboralari [Usmonova, 2014: 16]. Masalan, *ko'kat* - AQSH dollari, *limon* – million. Jargonlarni yoshlarimiz nutqida ham kuzatish mumkin. Ayniqsa, maktab o'quvchilarining kommunikativ jarayoniga diqqat qaratilsa, so'zga *ba, be, bi, bo, bu, bo'* bo'g'inlarini qo'shib talaffuz qilishadi: “*Ebertabagaba mabaktabagaba boborabasabanmibi?*”, ya'ni “*Ertaga maktabga borasanmi?*” Tabiiyki buni o'zlaridan boshqalar, yoshi kattalar tushunmaydi. Sleng – muayyan kasb egalari yoki ijtimoiy guruhlarning og'zaki nutqida qo'llaniladigan, emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'z va iboralar [Usmonova, 2014: 17]. Masalan, *qaychi* – chiroyli qiz, *g'isht* – xunuk qiz. Sleng termini birinchi marta XVIII asrda Angliyada qayd etilgan va haqorat ma'nosini ifodalagan. 1850-yildan boshlab noqonuniy leksikaning ifodasi sifatida keng ommalasha boshlagan. Slenglar faqatgina ma'lum ijtimoiy guruhgagina tushunarli bo'lgan shartli so'zlardir. Hozirda yoshlar nutqida bunday birliklarga ko'plab duch kelish mumkin. Nafaqat o'zbekcha, balki

xorijiy tillardan kirib kelgan slenglar ham talaygina. Masalan, “*neto*” – g‘alati, “*marry me*” – menga turmushga chiq, “*respect*” – hurmat va h.k. Bunday birliklarning yoshlarimiz nutqida tez-tez uchrashining bir qancha sabablari mavjud: avvalo, ularda chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish; xorijiy filmlarni ko‘p tomosha qilish; musiqalar tinglash; dunyo bo‘ylab sayohat qilishga intilish; IT sohasining keng ommalashuvi; yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarda muntazam faol bo‘lishi; xorij universitetlarida o‘qishga harakat. Bu ro‘yxatni yana davom ettirish mumkin. Shunday ekan, slenglar tobora yoshlarimiz ongiga va nutqiga mustahkam o‘rnashib olaveradi.

Biz yuqorida to‘xtalgan argo, jargon, slenglarni bir nom bilan sotsiolekt deyish mumkin. Ushbu til shakllarining har biridagi o‘ziga xoslik ma‘lum guruhlarning kasbiy alohidaligi yoki boshqa jamoalardan ijtimoiy jihatdan cheklanganligiga bog‘liqdir. Sotsiolekt termini tilshunoslikka XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kirib kelgan. U sotsio va dialekt terminlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Bu termini rus tilidagi “социальный диалект”, ya‘ni ijtimoiy dialekt birikmasining qisqargan shakli deyish mumkin. Sotsiolekt – umumiy ijtimoiy xususiyatlariga ko‘ra birlashgan ayrim guruhlarning lisoniy ehtiyojlarini qondirish uchun nutq amaliyotida ishlab chiqilgan til shakli [Usmonova, 2014: 15]. Adabiy tildan farqli o‘laroq, sotsiolektida qoidalardan chetga chiqish holatlari kuzatiladi. Umuman olganda, sotsiolektlar adabiy tilga bo‘ysunmaydigan til shaklidir.

Bugungi kunda tobora taraqqiy etib borayotgan jamiyatda argo, jargon, slenglardan foydalanish kundan kunga ommalashmoqda. Ayniqsa, yoshlar nutqini kuzatadigan bo‘lsak, turli xildagi ham o‘z qatlamga, ham o‘zlashgan qatlamga mansub sotsiolektlar ko‘plab topiladi. Quyida ularning ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Avvalo shuni ta‘kidlash lozimki, o‘zbek yoshlari nutqidagi sotsiolektlar hali tilshunoslikda yetarlicha o‘rganilmagan. M.Samatboyevaning “O‘zbek yoshlari nutqidagi sotsiolektlar” maqolasida sotsiolektlarning klassifikatsiyasini ko‘rishimiz mumkin [Samatboyeva, 2018: 108]. Shuningdek, “Alvido bolalik”, “Samum”, “Shaytanatning jin ko‘chalari” asarlaridan olingan sotsiolektlar tahlil qilingan. Biroq yoshlarning jonli nutqidan yozib olingan sotsiolektlar leksik-semantik jihatdan hozirgacha tadqiq etilmagan. Quyida mazkur sotsiolektlarni leksik-semantik jihatdan tahlil qilishga harakat qildik.

O‘zbek yoshlari nutqida turli vaziyatlarga mos sotsiolektlar uchraydi. Ularni ma‘lum bir guruhlarga bo‘lib, tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir.

I. Gender jihatdan:

O‘g‘il bolalar, erkaklar nutqida: 1. *Qaychi* – chiroyli qiz. 2. *G‘isht* – xunuk qiz. 3. *Krasavitsa* – juda chiroyli, go‘zal qizlarga nisbatan.

Qizlar, ayollar nutqida: 1. *Krutoy* – o‘ziga qarab chiroyli kiyinib yuradigan kelishgan yigitlarga nisbatan qo‘llanadi. 2. *Shkaf* – mushakdor yigitlarga nisbatan. 3. *Supurgi* – ayolsifat erkaklarni ayollar shunday atashadi.

II. Ma‘no ko‘lami jihatidan:

1. Ijobiy ma‘nodagi sotsiolektlar:

Ichak - yaqin do‘st, qadrdon.

Cho‘tki - hammasi yaxshi, zo‘r degan ma‘noda.

Dahshat – juda zo‘r.

Chiki-chiki – hammasi joyida, yaxshi.

Kayfiyat

besh – kayfiyat a‘lo.

Gul, shakar, stilist sotsiolektlari chiroyli, nozik tabiatli kishilarga nisbatan ishlatiladi.

2. Salbiy ma‘nodagi:

Ot qomatli ayollarga nisbatan salbiy ma‘noda qo‘llanadi.

G geylarga nisbatan haqorat ma‘nosida.

Jo‘jaxo‘roz salga qizishib ketaveradigan yigitlarga nisbatan.

III. Xarakter xususiyatiga ko‘ra:

Dux – qo‘rqoq odamlarga nisbatan “duxsan-a” deyishadi.

Chumo‘ (ЧМО) – ahmoq, tentak ma‘nosida qo‘llanadi.

Kuchuk – 1) qo‘lidan bir ish kelmaydigan, uni hech kim mensimaydigan erkaklarga nisbatan; 2) kuchukday ichmoq - bo‘kiguday bo‘lib ichmoq.

Beton – gap ta‘sir qilmaydigan kishilarga nisbatan.

Sandiq - yeb to‘ymas odam.

Amerika – hech narsani farqi yo‘q, beg‘am inson.

Vatan - sodiq kishi.

Suzma - suvi chiqqan, sekin harakat qiladigan odam.

Qozoq - g‘alcha odam.

Uchar - epchil, ishni ko‘zini biladigan.

Shurp - gapning qayoqqa ketayotganini bilmaydigan tentaksifat ma‘nosida.

Rezinka – ezma.

Lag‘mon - bitta gapni cho‘zaveradigan odam.

Latta - suvi chiqqan odam.

Layli – xayolparast.

Terpila, kozyol – chaqmachaqaq.

Taxta – qo‘pol.

Sumsik – ochko‘z.

Botanik – aqlli, ko‘p kitob o‘qigan kishi.

Skleroz – xotirasi past.

Toshbaqa – imillab harakat qiladigan odam.

Laycha – har doim kimgadir ergashib yuradigan kishi.

IV. Tashqi ko‘rinishiga:

Krasavchik chiroyli, kelishgan odamlarga nisbatan.

Shvabra - novcha va oriqli odam.

Shlanka, layli, straus, jirafa – bo‘yi baland kishi.

Shuningdek, taksi haydovchilari tilida quyidagi sotsiolektlarni uchratishimiz mumkin:

01 – mast holda mashina haydovchi kishi.

Bodring – ichki ishlar xodimi. Bunda aynan rang jihatdan olingan. Sababi bodring ham, ichki ishlar xodimlarining kiyimlari ham yashil rangda.

Cobalt, Nexia 3, uch oyoq radarni bildiradi.

V. Yosh xususiyatiga ko‘ra:

1. Maktab yoshidagi o‘zbek bolalari nutqida uchraydigan sotsiolektlar: *МПП* (лучшая подруга. Ushbu sotsiolekt, asosan, qizlarning nutqida uchraydi), *skleroz* (xotirasi past), *chiki-chiki* (yaxshi, zo‘r), *oq kaptar* (yigit va qiz o‘rtasida xat tashuvchi odam).

2. Universitet yoshlari nutqidagi sotsiolektlar: *sostav, otrabotka, portichka* (Формочка) *izlamoq* (vaziyatdan qochishga urinmoq), *respect* (hurmat), *my love* (yoqtirgan odami).

Shuningdek, taksi haydovchilari tilida quyidagi sotsiolektlarni uchratishimiz mumkin:

01 – mast holda mashina haydovchi kishi.

Bodring – ichki ishlar xodimi. Bunda aynan rang jihatdan olingan. Sababi bodring ham, ichki ishlar xodimlarining kiyimlari ham yashil rangda.

Cobalt, Nexia 3, uch oyoq radarni bildiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, o‘zbek yoshlari nutqlarida qo‘llayotgan sotsiolektlar nafaqat sotsiolingvistika, balki butun tilshunoslik uchun ham katta ahamiyatga ega manba hisoblanadi. Ularni to‘plash va tahlilga tortish, har tomonlama chuqur o‘rganish sotsiolingvistikadagi bir nechta muammolarning yechimi bo‘lishi mumkin. Adabiy til jonli so‘zlashuv nutqidani, shevalardan oziq olgani kabi ijtimoiy dialekt ham adabiy tilga ta‘sir eta oladi. Shu jihatlarini hisobga olgan ularni jonli kommunikatsiya jarayonida o‘rganish sotsiolektlardan foydalanish mumkin bo‘lgan hamma kontekstlarni aniqlash imkonini beradi.



Adabiyotlar:

1. Abdurahmonova M., Malikova Z. O‘zbek tilida sotsiolekt. – Fan, ta’lim, madaniyat va innovatsiya. 01(02), 2022. – B.104 – 107.
2. Darvishov I. Tilshunoslik nazariyasi (ma’ruzalar matni). – Namangan, 2012. – 120 b.
3. Samatboyeva M. O‘zbek yoshlari nutqidagi sotsiolektlar. Filologiya masalalari – yosh tadqiqotchilar nigohida. –T., 2018. –108 – 115 b.
4. Usmanova Sh., Bekmuxamedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika. – T., Universitet. – 2014. – 83 b.
5. Беликов В. И., Крысии Л. П. Социоллингвистика. – М., 2001. –331 с.